



SIYOSIY ELITA SIRKULATSIYASI

Qo'chqorov Jahongir

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti 3- kurs talabasi*

Annotatsiya; Ushbu maqolada biz Elitalar nazariyasi siyosatshunoslik fanida yaqinda shakllangan. Uning shakllanishiga siyosiy jarayonlarni ko'rib chiqishdagi sinfiy yondashuv to'sqinlik qilgan. Ushbu yondashuvning eng yorqin misoli marksizm edi. Marksizm nazariyasida muhim bir hukmron elitaning mavjudligi rad etilgan. Klassik marksizm nazariyasi bo'yicha siyosiy hukmronlikni amalga oshirgan sinf bu iqtisodiy hukmronlikni amalga oshirayotgan sinf, boshqacha qilib aytganda, ishlab chiqarishni o'z qo'lida tutgan sinf tashkil etganligini va siyosiy elita sirkulatsiyasi nimaligini korib chiqamiz.

Kalit so'zlar; Elita, sinf, klassik, iqtisod, hukmronlik, marksizm, nazariya, sirkulatsiya, ijtimoiy, tajriba, konsepsiya, tizim, mamlakat, zamonaviy, siyosat.

"Siyosat sirkulatsiya" atamasi o'zbekchadan inglizchaga "siyosiy aylanma" deb tarjima qilinadi. Bu kontseptsiya, odatda, jamiyat ichida hokimiyat va imkoniyatlarning kengroq taqsimlanishini ta'minlash maqsadida siyosiy yoki davlat lavozimlarida shaxslarning aylanishi yoki almashinuvini anglatadi. Bu siyosat va boshqaruvdagi muhim kontseptsiya bo'lib, ko'pincha demokratik tamoyillar va hokimiyatning bir necha shaxs yoki guruqlar qo'lida to'planishiga yo'l qo'ymaslik uchun siyosiy rahbariyatning muntazam almashinuvi zarurligi kontekstida muhokama qilinadi. Ba'zi kontekstlarda "siyosiy aylanma" siyosiy tizimlar ichidagi g'oyalar, siyosatlar yoki ta'sir almashishni ham anglatishi mumkin. "Siyosat sirkulatsiya" tushunchasi bo'yicha aniq savollarining bo'lsa, batafsil ma'lumot olishingiz mumkin!

Amerikalik siyosatshunos R. Mils hukmron elitaning ijtimoiy guruh sifatida maxsus, qadriyatli va psixologik o'xshashligini ko'rsatadi. Milsga ko'ra, siyosiy elita yagona ijtimoiy ildizlarga, aniq ifodalangan guruh ijodiga, harakat va birlashish uchun umumiyligi irodaga ega. Umumiyligi ildiz, ta'lim - tarbiya, «hayot tarzi»dan kelib chiqqan holda manfaatlarning umumiyligi va shaxsiy birdamlikka tayangan yuqori jipslik buni ko'rsatadi. Milsning fikricha, siyosiy elitaga kiradigan shaxslarning ma'naviy talablari, imkoniyatlarining majmui, ijtimoiy da'volarning darajasi va hatto psixologik hususiyatlari yuqori moslik bilan ajralib turadi. Bu esa,



siyosiy elita nafaqat hokimiyatga ega bo‘lgan kishilar guruhini, balki ijtimoiy tanlash natijasida shakllangan ijtimoiy guruh ekanligini bildiradi. Siyosiy elita o‘zi nimani – bildiradi? Unga kimlar kiradi? Uning tuzilishi qanday?

«Siyosiy elita» tushunchasini keng va tor ma’noda qo‘llash lozim. Keng ma’noda «siyosiy elita» tushunchasi «hukmron elita» tushunchasiga teng.

Boshqaruv elitasi bu jamiyatning tashkiliy ozchiligi bo‘lib, ko‘pchilikdan farqli bo‘lgan lekin juda birdam ijtimoiy guruh hisoblanadi. U liderlik qobiliyatlarga ega bo‘lib, boshqaruv funksiyalarini amalga oshirishga tayyorgarlik ko‘rgan; u jamiyat institutlarida boshqaruv kursini egallaydi, hamda bevosita va bilvosita jamiyatda hokimiyat qarorlariga ta’sir ko‘rsata oladi.

Siyosiy elita tor ma’noda boshqaruvchi elitaning bir qismi bo‘lib, o‘zining hokimiyatni amalga oshirishga bevosita qatnashishi bilan undan farq qiladi.

Siyosiy elita o‘z qo‘lida davlat hokimiyatini jamlagan va jamiyat boshqaruvida yuqori lavozimlarni egallaydigan ijtimoiy guruhdir. Jamiyatning siyosiy elitasiga hokimiyat funksiyasi va vakolatlariga ega bo‘lgan yuqori rangdagi professional siyosatchilar kiradi. Yana siyosiy elitaga siyosiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda jamiyat rivojlanishining strategiyasini ishlab chiqishda qatnashadigan maxsus tayyorlangan oliy darajadagi siyosiy xodimlarni kiritamiz, siyosiy elitaning o‘ziga xos asosiy tomonini ta’kidlash maqsadida, uni ba’zan «davlatlarning siyosiy rahbariyati», «siyosiy qarorlar qabul qilish markazi» deb aytishadi. Uning tarkibi yildan-yilga o‘zgaradi, ammo lavozimlar tuzilishi deyarli o‘zgarmaydi. Bu davlat boshliqlari, ijro etish, qonun chiqarish, sud hokimiyatlarining rahbariyatlari, oliy diplomatik korpuslaridir. Siyosiy elita hokimiyat funksiyalarining hajmi asosida siyosiy elitaning quyidagi darajalariga bo‘lish mumkin: oliy, o‘rta va quyi.

Oliy darajadagi siyosiy elitaga mamlakat rahbari, Bosh vazir, Bosh vazir o‘rinbosarlari va lider vazirlar, parlament spikeri, deputatlar fraksiyalarini rahbarlari kiradi. Bu, jamiyat uchun ancha muhim bo‘lgan siyosiy echimlarni qabul qiladigan, son jihatidan ancha cheklangan insonlar guruhi (100-200 kishi).

O‘rta darajadagi siyosiy elita ko‘plab sonli saylangan mansabdor shaxslardan shakllanadi: hokimlar (gubernatorlar), parlament deputatlari, siyosiy partiyalar va jamoat harakatlari hamda kasaba uyushmalari boshliqlari. Lekin, demokratik institutlar rivojlangan davlatlarda partiyalar va kasaba uyushmalar liderlari yuqori elita tarkibiga kirishlari mumkin.



Quyi darajadagi elitani mahalliy doirada faoliyat olib boruvchi siyosatchilar tashkil qiladi (rahbarlar va mahalliy boshqaruv organlari deputatlari, regional doiradagi partiya a'zolari).

Administrativ elita – bu boshqaruvning texnik-tashkiliy vositalarini o‘z qo‘lida monopollashtirgan, boshqarayotgan elitaning bir qismidir. Personal tarkibda administrativ elita – bu vazirliliklarda, hukumatning turli boshqaruv organlari departamentlarida muhim o‘rinlarni egallovchi davlat ishchilarining (mansabdor shaxslar) eng yuqori tabaqasi. Administrativ elita siyosiy elita tarkibiga kiradi, lekin, uni (boshqaruv apparati) tuzilishi jihatidan mustaqil guruhga ajratish mumkin.

Iqtisodiy elita – bu boshqaruv tizimida o‘z faoliyatini xususiy mulk asosida olib boruvchi, boshqarayotgan elitaning bir qismidir. Iqtisodiy elita tarkibiga o‘z qo‘llarida moddiy va moliyaviy resurslarni to‘plagan shaxslar kiradi: ulkan korporatsiyalar, banklar egalari va ularning menejerlari.

Harbiy va politsiya elitasi tarkibiga davlatning oliy harbiy rahbarlari, generalitet, ichki ishlar vazirligi, davlat xavfsizligi, maxsus xizmatlar va hk. boshliqlari kirishadi. Ba’zi davlatlarda harbiy elitaning bir qismi oliy tabaqa elita tarkibiga kirsa, boshqa qismi esa o‘rta yoki administrativ elita tarkibiga kiritilishi mumkin.

Ko‘zga ko‘rinadigan qatlamlardan birini, ma’naviyat, madaniy, mafkuraviy elitalar tashkil qiladi. «Ma’naviy yo‘lboshchilar» va yirik ommaviy axborot vositalari xodimlari va ta’lim tarbiya maskanlari, ziyoliylar va zakovatlilar, yozuvchilar, diniy arboblar, adabiyot va san’at xodimlari shular jumlasidandir.

Siyosiy elitalar paydo bo‘lishining sabablari va ularning vazifalari

Siyosiy elita - bu hokimiyatga erishgan, jamiyat hayotining turli sohalarida buyruq beruvchi o‘rinlarni egallagan odamlar to‘dasi emas, balki barcha siyosiy tizimlarda bo‘ladigan mukammal tashkil etilgan hamkorlik ijtimoiy guruhlardir. Shu o‘rinda, u guruhlarning vujudga kelishi uchun ma’lum bir ob’ektiv sharoit va imkoniyatlar bo‘lishi lozim. Bu sabablar, imkoniyatlarini uch darajaga bo‘lish mumkin. Birinchi darajali imkoniyatlarni ijtimoiy sabablar tashkil etadi: umumiy mehnat taqsimoti va jamiyatni ijtimoiy yo‘naltirishdan iborat.

Mehnat taqsimoti qonuni va u bilan bog‘liq bo‘lgan jamiyatning ijtimoiy yo‘naltirishi, turli guruhlar va qatlamlarning ijtimoiy vazifalarining farqliligini ta’minlaydi. Jamiyatning sohalashtirilishi faqat mehnat taqsimoti tufayli yuzaga kelishi mumkin, va bu erda har bir ijtimoiy guruh hayot uchun muhim bir vazifani bajaradi: biri moddiy ishlab chiqarish bilan mashg‘ul bo‘lsa, keyingisi ma’naviy qadriyatni tashkil qiladi, uchinchisi boshqaruvchidir va hokazo. Jamiyat



organizmining mo‘tadil ishlashi uchun, o‘z vazifasini bajarishi uchun hayot faoliyatining barcha turlarini hisobga olish, o‘rganish lozim. Lekin ulardan ba‘zilari hayot uchun muhimroq, boshqalari esa ikkinchi darajalidir. Shunday qilib ijtimoiy ierarxiya asosida ularni ijro etadigan mos sinflar, qatlamlar va guruhlar ierarxiyasi paydo bo‘ladi.

Ijtimoiy piramida yuqorisiga umumiy boshqaruv va rahbarlikni amalga oshiruvchilar qo‘yiladi, zero ushbu funksiyalar vositasida ijtimoiy organizm birligi ta’milanadi, Boshqa funksiyalarning muvaffaqiyatli ijrosi uchun zarur chora ko‘riladi. Shundan kelib chiqib, elitaning mavjudligi boshqaruv mehnatining yuqori ijtimoiy ahamiyati va uning ustunliklar va boshqa shakllar tizimi ko‘rinishdagi muvofiq xohish irodasi bilan izohlanadi. Rag‘batlantirishning bu shakli barcha siyosiy tizimlarda mavjud. Undan davlatni boshqarish borasida faoliyatning yuqori motivatsiyasini yaratishda foydalaniadi. Ammo, bu erda nafaqat jamiyat, davlat tomonidan yo‘lga qo‘yilgan motivatsiyalar, balki individlarning «yuqoriga ko‘tarilish», davlatni boshqarishda muhim pozitsiyalarini egallash uchun bo‘ladigan ichki motivatsiyasi ham namoyon bo‘ladi. Gap shundaki, siyosat bu qadriyat va resurslar yoyilishi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lgan boshqaruv mehnatidir. Boshqaruvda siyosatdan foydalanishdagi keng imkoniyatlar muhim stimuldir, demak boshqaruvchi elita mavjudligining omili ham shudir.

Ijtimoiy tengsizlik - bu maqomlar tengsizligidir. Bu tengsizlik iqtisodiy sabablar bilan izohlanishi mumkin. Mulkka va avvalo ishlab chiqarish vositalariga ega individlar va guruhlar moddiy boylikning iste’molida va taqsimlanishida hukmron mavqega ega.

Hozirda ham bu tengsizlik individlarning u yoki bu ijtimoiy rolni bajarishdagi qobiliyatları bilan xarakterlidir. Shu bilan birga rahbarlikda, boshqaruv faoliyatida tajriba, umumiy bilimlar yalpi iffat va yuqori intellekt talab qilinadi.

Lekin odamlar tabiatan har xil qobiliyatlarga egadirlar. Demak odamlarning tabiat in’omiga egaligi, psixologik tengsizligi jamiyatning elita va ommaga bo‘linishda ikkinchi muhim omildir.

Jamiyatning siyosiy soha faoliyatining hususiyatlaridan kelib chiquvchi siyosiy elitaning siyosiy omillari ham mavjud. Siyosat har kimning qiziqish doirasiga kiravermaydi. Ko‘plar uchun siyosatga jalb qilinish bu ikkinchi darajali ishdir. Siyosatda ozchilik faollik ko‘rsatadi.

Shunday qilib asosiy hayotiy manfaatlari siyosatda bo‘lmagan siyosiy passiv omma siyosiy elitaning mavjudligidagi muhim omil. Hatto eng taraqqiy etgan demokratik davlatlarda ham asil siyosiy amaliyotda ommanning siyosiy qarorlarini



qabul qilish va siyosatni idora qilishdan chetlatish yuqori darajada va xalq hokimiyatining xalqni boshqarishi har xildir. O‘zining ijtimoiy mavqeidan va vujudga kelish, mavjud bo‘lishining sabablaridan kelib chiqib hokimiyatdagi elitaning ijtimoiy vazifalari kelib chiqadi. Uning asosiy vazifasi jamiyatni idora qilish. Ijtimoiy boshqaruv, avvalo, insonlarning hayot tarziga ta’sir qilish bilan amalga oshiriladi. Buni esa elita jamiyatning moddiy va ma’naviy boyliklarini boshqarish bilan amalga oshiradi, hokimiyatdagi elita bu boshqaruvdagi kadrlarning asosiy zahirasi bo‘lib, boshqaruvning siyosiy, iqtisodiy, ma’muriy, harbiy, madaniy va ma’rifiy jabhalariga boshliqlarni tarqatadi.

Ijtimoiy boshqaruvda jamoatning qadriyatlari muhim ahamiyatga egadir. Boshqaruvdagi elita jamiyatdagi taraqqiyotning qadriyatlarini, maqsad va vazifalarini ishlab chiqish mas’uliyatiga ega va bu me’yor hamda qadriyatlar, ideallar, ijtimoiy-siyosiy doktrinalar davlat faoliyatining uzoqqa yo‘naltirilgan dasturlari shaklida bo‘lishi kerak.

Jamiyatning siyosiy madaniyati shakllanishiga boshqaruvchi elita faollik bilan ta’sir ko‘rsatadi va hozirgi mafkuraviy modellar va maqsadlarni “Yorug“ kelajak” barpo etish uchun aniqlab ishlab chiqadi.

Siyosiy elita to‘g‘risidagi tasavvurlarni chuqur bilish uchun aniq tarixiy yondashuvlarni ko‘rib chiqish lozim.

XX asr siyosatshunoslari uchun siyosiy elita yoxud boshqaruvchi siyosiy elitani mavjudligi absolyut banallik sifatida qabul qilinishi kerak. Ammo hozirgi kunda siyosiy elita va jamiyat o‘rtasida mavjud bo‘lgan munosabatlarning keskinlashuvi kuzatilmoqda va o‘rtada nizolar kelib chiqmoqda. Bu orada ikkita asosiy modellarni ko‘rib chiqish kerak. Birinchi model shuni ta’kidlaydiki, ta’sir doirasi keng va butun jamiyatni o‘ziga qamrab oladigan siyosiy elitalar mavjud. Bu oligarxik, elitaristik modeldir. Ikkinci model esa ko‘plab elitalarning mavjudligini ta’kidlaydi va elitalar o‘rtasidagi raqobatni ham o‘z nazarida tutadi. Bunday model esa poligarxik, yohud demokratik model nomini olgan.

Birinchi modelning ko‘zga ko‘ringan vakillari, “makiavellistik maktab” deb nom olgan oqim namoyandalari G.Moska, V.Pareto, R.Mixelslardir. “Makiavellistlar degan atamani” birinchi bo‘lib amerikalik politologlardan F.Xinter ishlatgan. Bunga sabab ushbu siyosatshunoslarning fikrlari XVI asrda ijod qilgan buyuk mutafakkirning fikrlariga yaqin edi.



“Makiavellistlarning” xususiyati shundaki, ular elitani alohida mujassamlashgan guruh sifatida ko‘rganlar. Bundan tashqari, bu guruh boshqa guruhlar orasida o‘z ustunligini alohida xususiyatlar bilan qo‘llab-quvvatlagan.

Jamiyatning boshqaruvi ozchilikka bo‘ysunishi, ya’ni elita va bo‘ysunadigan ko‘pchilik – har qanday jamiyatni harakatga keltiruvchi omma hisoblanadi. Bunday bo‘lishi qonun bo‘yicha insonning tabiatidan kelib chiqadi. Bu tabiiy hol bo‘lib, elita tarkibining o‘zgarishiga qaramasdan o‘z asosiga ko‘ra uning ommaga bo‘lgan hukmronlik holati o‘zgarmasdir. Ko‘pchilik ozchilik tomonidan boshqariladi, chunki ozchilik yaxshi tashkillashtirilgan bo‘ladi. Hukmron sinfiga asosan guruh hamjihatligi xos bo‘ladi. Bu guruhning hamjihatligi nafaqat professional status, ijtimoiy kelib chiqishning umumiyligiga asosan balki o‘zini elitaristik anglash, o‘zini jamiyatni boshqarishga qodir deb topilgan alohida qatlam deb hisoblashga ham asoslangan.

Boshqaruvchi elita qatoriga qo‘shilish har bir shaxsda alohida sifat va qobiliyatlar majmuasiga ega bo‘lishni talab qiladi. Elitalarning alohida sifati tabiiy tug‘ma holat hamda boshqarish qobiliyatini shakllantirish tarbiyaga bog‘liqdir.

Ammo bu sifatlar doimiy emas. Ular inson jamiyatining evolyusion jarayonida o‘zgaradi. Shunday qilib oddiy jamiyatda harbiy botirlik yuksak darajada baholangan. Sivilizatsiyaning rivojlanish sifati me’yorida hukmronlikni ozchilikni qo‘liga beradigan hukmronlik boylikka ega bo‘lishni bildirar edi. Tarixni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, hukmron sinfga kirishni uch omil ochib beradi: harbiy botirlik, moddiy boylik, ma’naviy hukmronlikka egalik. Ushbu uch omil bilan aristokratiyaning uch tarixiy shakli bog‘liq: harbiy, cherkov va moliyaviydir. Biroq hukmron sinfga ajratishning oliv mezoni boshqarish qobiliyati hisoblanadi. O‘z jamiyatining zaif va kuchli tomonlarini biluvchi, uni nazorat qila olishdir.

Hozirgi paytda tashkil etilgan jamiyatning ustidan hukmronlik qilish ushbu vaziyatning o‘zgarmasligini bildirmaydi. Jamiyatda har doim hokimiyat uchun kurash olib boriladi.

Tabiiy tug‘ma, iste’dodli ko‘pgina kishilar hukmronlik imtiyoz holatini qo‘lga kiritishga intiladilar. Jamiyat esa o‘z-o‘zidan doim rivojlanib boradi. YAngi vaqt hukmron elita oldida yangi vazifalarni qo‘yadi. G.Moska hukmron sinfning rivojlanishida ikkita tendensiyani belgilaydi. Bir tomonidan elita vakillarining o‘z vazifalari va imtiyozlarini o‘zlarida doimo qoldirishga harakat qilishi, ikkinchi tomonidan yangi kuchlarning eski kuchlarning o‘rniga kelishidir. Agar jamiyatda aristokratik yondashuv ustunlik qilsa, hukmron sinf yopiq bo‘ladi va jamiyatning rivojlanish qobiliyati qisqaradi. Agar ikkinchi (demokratik) tendensiya ustunlik



qilsa, hukmron sinfga kirish qiyinchilik tug‘dirmaydi va uning shaxsiy yangilanishi tez sur’atlar bilan oshib boradi. Ammo bunday tendensiya holatida quyi guruhlarning hokimiyatni egallash uchun bo‘lgan hatti-harakatlari beqaror vaziyat, siyosiy krizislarga olib kelish xavfini tug‘diradi.

V. Pareto G.Moskaning elitalar nazariyasining ko‘pgina fikrlarini boyitdi. U shuni alohida ta’kidlab o‘tdiki, hukmron elita bu jamiyat ustida turuvchi maxsus ijtimoiy guruh hisoblanadi. Bu guruh muhim mushtaraklikka ega. U umumiy kelib chiqish va birgalikda o‘tgan tarixiy yo‘l asosida chatishib ketgan va o‘zining hatti-harakatlarini o‘z maqsadlariga erishish uchun yo‘naltiradi. V. Paretoning ahamiyatli nazariyasi elitaning omma ustidagi ustunligini asoslash fikriga qaratilgan. Ushbu ustunlik elitalar vakillarining tabiiy sifati bilan tushuntiriladi: ularning hayoti, kuchi, energiyasi va irodasidir.

V.Paretoda jamiyatni boshqarish uchun qo‘llanadigan resurslarni sharhlashda ko‘proq makkiavelistik qarashlar mavjud. Uning fikricha nisbatan kamsonli sinf qisman kuch bilan hokimiyat tepasida tura oladi va qisman bo‘ysunuvchi sinfning ko‘p qismi tomonidan berilagan roziligi sababi bilangina tura oladi. Rozilikning omili hukmron elitaning ommani o‘zining haqligiga ishontirish qobiliyatiga asoslangan. Rozilik ehtimoliga elitalarning ko‘pchilik his-hayajoni va emotsiyasiga ta’sir etish usuli bilan, ustalik bilan ega bo‘lishiga bog‘liqdir. Biroq ishontirish qobiliyati hokimiyatni saqlash uchun ko‘p hollarda etarli emas va o‘sha paytda elita o‘z faoliyatida kuch ishlatishi kerak.

V.Pareto shuni ta’kidlaydiki, ozchilikning ko‘pchilik ustidan hukmronligi tabiiy tug‘ma qobiliyatga bog‘liq bo‘lsa, o‘zining doimiy hukmronlik holatini ta’minlab berishi mumkin emas. Elitalarga tegishlilik majburlash asosida hech qachon meros bo‘lib o‘tmaydi. Bolalar o‘z ota-onasining yuksak sifatli qobiliyatlarini o‘zlarida mujassamlashtira olmaydilar, va shuning uchun bu xislatlar kamayish tendensiyasiga ega. Ayni paytda jamiyatda doimo kontrelita mavjud bo‘lgan. Kontrelita elitalar elementining doimiy potensiali raqiblaridirlar.

Elitalarni tanlash va saralash tizimlari

Hozirgi davrda demokratik jamiyatlar uchun dolzarb vazifalardan biri –elitar guruhlarga qarshi kurash emas,balki jamiyat uchun foydali siyosiy elitalar guruhini shakllantirishdir, unda ijtimoiy vakolatlilikning o‘z vaqtida sifat jihatdan yangilanib turishini ta’minalash,oligarxiyalashuvi, xalqdan begonalashuvi va yopiq hukmron, imtiyozli tabaqaga aylanishining oldini olishdir. Elitalar ijtimoiy vakolatligiga, uning sifatiga va samaradorligiga elitalarni, a’zolarini tanlab olish tizimi muhim ta’sir



ko‘rsatadi. Elitaga tanlab olishning ikkita asosiy tizimi, gildiya va antreprenor tizimi mavjud.

Gildiya tizimiga talabgorlarni yopiq holda tanlash, quyi xizmat pillapoyalaridan, yuqori qarab o‘sish, tanlab olishga, murakkab talablar tizimi (bularga partiya a’zoligi, ish stoji, ma’lumoti, egallab turgan lavozimi, rahbariyatning ijobiy tavsifnomasi va hokazalar kiradi) xos.

Antraprener tizimi gildiya tizimiga qarama-qarshi bo‘lib, bu tizim quyidagilar bilan xarakterlanadi:

Ochiqlik, yetakchi pozitsiyalarni egallahsga har qanday ijtimoiy guruhlarga keng imkoniyatlar berilishi;

Rasmiy talablarning ko‘p emasligi;

Istagan kishi da’vogarlik qila olishi;

Jamiyatda siyosiy elitalar bir qator muhim vazifalarni bajaradi. Avvalo, ular butun jamiyat, alohida qatlamlar manfaatini ifodalovchi yangi g‘oyalarni ishlab chiqaradilar va jamiyat rivojining asosiy yo’naliшhlarini belgilab beradi. Bu – strategik funksiyadir. Siyosiy elita o‘z dasturlarida jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlarning manfaatlari aks etishiga intilishi bilan, ikkinchi, kommunikativ funksiyani bajaradi. Siyosiy elita tashkilotchilik, ya’ni ishlab chiqilgan rejalarini hayotga tatbiq etish vazifasini ham bajaradi. Shuningdek, siyosiy elita jamiyatning barqarorlik va birligini, uning iqtisodiy va siyosiy tizimlari turg‘unligini, ixtiologlarning oldini olish orqali jamiyatni birlashtirish funksiyasini bajaradi.

Adabiyotlar;

Mamutov U.B. Kasbiy pedagogik ta’lim tizimi uzviyiligi va uzlusizligini ta’minlash masalalari // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2006. – 155-157 b.

Mirzaxmedov M.A., Narmanov A.J. Uzlusiz ta’lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish // Uzlusiz ta’lim ilmiy -uslubiy jurnal. – Toshkent, 2004. – № 5. – 46-55 b.

Nazarov Q.N., To‘uchiev B., Xaydarov X., O’tamurodov A., To‘xtarov I., To‘raev Sh. Ijtimoiy falsafa // O‘quv qo’llanma. – Toshkent, 2008. – 235 b.

Спенсер Г. Политические сочинения: в 5 томах. 3-е изд. // – Челябинск: Социум, 2020. – Т.3. История политических институтов. – 426 с.

Сазонова З.С. Интеграция образования, науки и производства как методологическое основание подготовки современного инженера // Автореферат док. канд. наук. – Казань, 2008. – С 18.

Спенсер Г. Политические сочинения: в 5 томах. 3-е изд. // – Челябинск: Социум, 2020. – Т.3. История политических институтов. – 426 с.

Smend, Rudolf. In: Kürschners Deutscher Gelehrtenkalender // Biobiblio-graphisches Verzeichnis deutschsprachiger Wissenschaftler der Gegenwart. Ausgabe. – Gruyter, Berlin, 2016. – Z. 28.